



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING BUYRUG'I

Toshkent sh.

Nº 498

"10" 1d 2021-y.

O'zbekiston davlat konservatoriysi hamda O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti Ustavlari tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" 2020-yil 23-sentabrdagi O'zRQ-637-son Qonuni, "O'zbekiston davlat konservatoriysi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3178-son qarori, "O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutini tashkil etish to'g'risida" 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5261-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 7-sentabrdagi 558-son qarori hamda "Oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 2017-yil 20-iyundagi 393-son qaroriga muvofiq Madaniyat vazirligi tizimidagi O'zbekiston davlat konservatoriysi hamda O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutida ta'lif jarayonini samaradorligi va ta'lif sifatini oshirish, tizimli ravishda samarali ish olib borish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston davlat konservatoriyasining 2021-yil 30-noyabrdagi 01-04-950-son xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston davlat konservatoriysi hamda O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining Ustavlari 1- va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston davlat konservatoriysi (Urinbayev):

20 kun muddatda mazkur Ustavlarni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazsin va nuxxalarini vazirlikga taqdim qilsin;

O'zbekiston davlat konservatoriysi hamda O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati

institutida ta'lim faoliyatini boshqarishda shaxsiy javobgarlikni inobatga olgan holda, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinosiga O.Mirzayev zimmasiga yuklansin.

Vazir



O.Nazarbekov



No 01-04-950
«30» 11 2021 y

O'zbekiston Respublikasi
madaniyat vaziri
O.A.NAZARBEKOVga

Hurmatli Ozodbek AHMADOVICH,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi rahbariyati O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi O'zRQ-637-son Qonuni, "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 8-avgustdagい PQ-3178-son qarori, "O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutini tashkil etish to'g'risida"gi 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5261-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 7-sentabrdagi 558-son qarori hamda "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 2017-yil 20-iyundagi 393-son qaroriga muvofiq Madaniyat vazirligi tizimidagi **O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutida ta'lim jarayonini samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish, tizimli ravishda samarali ish olib borish maqsadida O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining Ustavlarini ilovalarga muvofiq tasdiqlab berishingizni so'raymiz.**

Ilovalarda: O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining Ustavlarining loyihalari.

Rektor v.v.b.

F.Abdullayev